

OILADA ONANING O'RNI

Umarova Zebo Odilovna

Jizzax politexnika instituti

“Iqtisodiyot va boshqaruv” bo‘limi va katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asosan ayollik sha'nini hamma narsadan yuqori qo'yishga, ayollik burchini muqaddas va sharafli ish deb qarashga o'rgatiladi. Fidoyilik - ayollik qismati ekanligi, unga bo'ysunish kerakligi uning ongiga singdirib borilganligi xususida fikr bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *odob, ahloq, ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim, tarbiya, go'zallik, latofatlik, mardlik, jasurlik.*

THE ROLE OF THE MOTHER IN THE FAMILY

Umarova Zebo Odilovna

Jizzax Polytechnic Institute

Senior Lecturer of the Department of Economics and Management

Abstract: *This article mainly teaches to put the dignity of woman above all else, to consider the duty of a woman as a sacred and honorable deed. It is said that self-sacrifice is a part of femininity and that the need to obey it is instilled in her mind.*

Keywords: *etiquette, morality, spirituality, enlightenment, education, upbringing, beauty, grace, courage, bravery.*

Oilada onaning o‘ziga xos o‘rni borki, uni boshqa hech kim va hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ma’naviyat oiladan, eng avvalo, er-xotinning madaniy muomilasidan boshlanadi. Zero, Hadisi Sharifda ham “Ayollarni faqat ulug‘ odamlar hurmat qiladi. Ularni faqat pastkash odam xo‘rlaydi. Haqiqiy mo‘min deb xushxulq va ayoliga nisbatan xushmuomala kishiga

aytiladi” [1], - deyiladi. Demak, musulmonchilik shartlaridan biri - o‘z jufti haloliga xushmuomala bo‘lish ekan. Payg‘ambarimiz aytganlaridek: “eng buyuk do‘stlik er-xotinlikdir”[2].

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, XIX asrda Samarqandda yashab o‘tgan taniqli shoir, Ulug‘bek madrasasining mudarrisi Abdulkarim Sipandiyning hayotidan bir misol keltirishni joiz topdik. Kelinni birinchi bor chimildiqda ko‘rgan va uning go‘zal husniga mahliyo bo‘lgan Sipandiy sohibjamol kelinchak sha‘niga she‘r o‘qiydi:

Ey, nigoro, bunchalar nozu adolar kim uchun?

Oshig‘ing dil izhorin tinglamaysan ne uchun?[3]

mata‘li g‘azal bo‘lib, u quyidagi maktab bilan tugaydi:

Mening ko‘z o‘ngimda jamoling goh oyu, goh kundir,

Oy go‘zalu, gul xushbo‘y, yana bunda ne kamdur?[4]

Hamma gap shundaki, 16 yoshli go‘zal kelinchak nafaqat husnda, hatto aql-farosatda ham tengi yo‘q dono ekanki, shoirning bu otashin dil izhoriga zukkolik va nazokat bilan she‘riy javob qaytaradi.

Kelin-kuyovning bunday nafis, madaniy muloqoti ularning go‘zal ma‘naviy qiyofalarini ko‘z o‘ngimizda namoyon qiladi-ki, bunday qalb nozikligi, aqlning teranligi, farosatning sharqona ko‘rinishi faqat ulug‘ kishilarda, qalbi go‘zal, ma‘naviyati boy kishilardagina uchraydi.

Hadisi Sharifda: “Agar kishi o‘z jufti haloliga jilmayib boqsa, u ham eriga jilmayib boqsa, Alloh taolo ham ularga rahmat nazari bilan qaraydi, agar qo‘lidan ushlasa, gunohlari panjalari orasidan to‘kiladi”, [5] - deyilishi bejizemas, albatta. Biz islom aqidalarini e‘tiqod darajasiga etkazgan, o‘z hayotlarida unga amal qilgan ajdodlarimizning ana shu go‘zal xulqlarini, odatlarini yoshlarimizga tushuntirsak, targ‘ib qilsak, ma‘naviyatning poydevoriga dastlabki g‘ishtni qo‘ygan, ma‘naviyat sari dastlabki qadamni tashlagan bo‘lamiz.

Oilada onaning oʻrni, uning farzandlar tarbiyasiga koʻrsatgan taʼsiri haqida xalqimiz koʻp va xoʻp fikrlar aytganki, bu bejizemas. Chunki oiladagi iqlim, farzandlarning xulqi, odobi, otaga munosobati, atrofdagi kishilarga va jamiyatga munosobati aynan anashu onaga bogʻliq. Bola hayotga, kishilarga, voqealarga, avvalo, onaning koʻzi bilan qaraydi. Shuning uchun ham xalq orasida “Ota bilimli boʻlsa, farzandlar bilimli boʻladi. Ona bilimli boʻlsa, millat bilimli boʻladi”, degan naql mavjud.

Atoqli pedagog A.Avloniy aytganlaridek, “...Birinchi – uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir”. Haqiqatan ham, millat tarbiyasiga birinchi navbatda onalar masʼuldirlar. Chunki ayollarda faqat oilani emas, baʼzi erkaklar ham eplay olmaydigan, mamlakatni idora qila oladigan quvvat ham borki, buni juda koʻp allomalarimiz tan olib, ayolning nafaqat oiladagi, hatto jamiyatda oʻz oʻrni borligini alohida taʼkidlashgan va “Oqila ayol – oilaning asosi, bolalarni oʻz zamonasi uchungina emas, kelajak uchun tarbiyalay oladi” [6], - deganlar.

Darhaqiqat, jamiyatning yuksalishida ayolning tutgan oʻrni naqadar kuchli ekanligiga hayotning oʻzi, tarixning oʻzi guvohlik beradi. Ona-dunyoda eng tabarruk zot. Hayot onadan boshlanadi, chunki u farzandlar ijodkori, insoniyat meʼmori. Ona – inson tafakkurining gulshani, inson kamolotining sababchisidir. Ona uchun eng kata baxt – bu farzandlarni risoladagiday tarbiyalash, voyaga etkazishdir. Onaning farzandga munosoboti har qanday vaziyatda oʻzgarmaydi. Kishining eng yaqin doʻsti, sirdoshi, begʻaraz maslahatgoʻyi ham ona. Eng ogʻir damlarda senga ham dard va hamdam boʻlgan ham ona. Farzandda eng koʻp haqqi bor odam ham ona. Ona roziligini olgan farzand uchun Jannat eshiklari ham ochiladi. Shuning uchun ham **“Jannat onalar oyogʻi ostida”**, - deyiladi muborak Hadisi Sharifda.

Ulugʻ kishilarimizning tarjimai hollariga nazar tashlasak, ularning ulugʻlik darajasiga koʻtarilishlarining sababchisi ham onalari ekanligining guvohi boʻlamiz. Ibn Sino onasi Sitorabonudan, Bobur onasi qutlugʻ Nigorxonimdan dastlabki insoniylik sabogʻini olishgan.

Qiz bola - goʻzallik va orastalik timsoli. Shuning uchun ham qiz bola yoshlikdan goʻzal odobga, goʻzal muomalaga, goʻzal hatti-harakatlarga, goʻzal turmushga oʻrgatib boriladi. Chunki qizbolaning hatti-harakati, muomalasi, yurish-turishidan, koʻzlaridan, yuzidan goʻzallik, latofat uf urib turishi kerak. Ana shu goʻzallik oila aʼzolarining koʻnglini yoritadi. Oilada goʻzal iqlim yaratadi. Ana shu goʻzal iqlim oiladagi farzandlarni goʻzallikka oshno qiladi, ularda goʻzal hislarni tarbiyalaydi. Oiladagi goʻzallik, goʻzal iqlim anashundan boshlanadi. Oiladagi goʻzallik jamiyat goʻzalligiga asos boʻladi, oiladagi goʻzallik, orastalik uy yumushlarining bekamu-koʻst, mehr bilan bajarilishini, roʻzgʻor anjomlarining toza, pokiza, saranjom tutilishi va saqlanishini talab qiladi.

Har bir totuv, ahil oila qiz boladan goʻzal didni, pazandalik, chevarlik, ozodalikni talab etadi. Kizi bor uyning fayzi bor deydi, donno xalqimiz. Darhaqiqat, qizi bor uy toza, ozoda, saranjom-sarishta, hovlilar shinam, koʻchalar suv sepilgan, supurilgan, kiyim-boshlar toza, orasta, muomalada osoyishtalik, xushmuomalalik - hammasi shu hovlida qiz bolaning borligidan dalolat beradi. Har bir ishda qizbolaning qoʻli borligi seziladi, har bir buyumda, koʻcha, hovli, uyda qiz bolaning nafasi uf urib turadi.

Qiz bola, iboli, hayoli, latofatli boʻlishi kerak. Shuning uchun ham ona unga qanday oʻtirib, qanday turishni, qaysi paytda qanday gapirishni, oʻzini qanday tutishni oʻrgatadi. Qiz bola boʻlajak turmush oʻrtogʻini hurmat qilishi, uning topib – tutib kelganini asrab-avaylashi, oʻz oʻrnida sarflashi, soliha, oqila uy bekasi, sadoqatli ayol va mehribon ona boʻlishi kerak. Buning uchun qiz bola yoshligidan uy yumushlarini bajarishga, mahsulotlarni tejab ishlatishga, hurmat qilish, sadoqat va mehribon boʻlishga odatlantirib boriladi. Ayollik shaʼnini hamma narsadan yuqori qoʻyishga, ayollik burchini muqaddas va sharafli ish deb qarashga oʻrgatiladi. Fidoyilik – ayollik qismati ekanligi, unga boʻysunish kerakligi uning ongiga singdirib borilgan [7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Ibroximov, X.Sultonov “Vatan tuyg‘usi”, Toshkent – 1996, 83 – bet.
2. A.Ibroximov, X.Sultonov “Vatan tuyg‘usi”, Toshkent – 1996, 84 – bet.
3. Sipandiy Samarqandiy. Toshkent.O‘z.FA “Fan” nashriyoti. 1995 yil. 6-bet.
4. A.Ibroxmov, X.Sultonov “Vatan tuyg‘usi”, Toshkent – 1996 yil, 85 – bet.
5. A.Ibroxmov, X.Sultonov “Vatan tuyg‘usi”, Toshkent – 1996 yil, 89 – bet.
6. N.Mustafoeva “Ayol yuksaltirur bashariyatni”, “Tafakkur” jurnali, 1999 yil, № 3. 120– bet.
7. G.A.Haydarova, K.U.Pardaeva, B.N.Gapparov “Xalq pedagogikasi”, “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent. 2009 yil, 144-151 betlar.